

MUQIMIYNING “VOQEAI VIKTOR” ASARIDA IQTISODIY
MUAMMOLARNING AKS ETTIRILISHI



Muhlisa Muhiddinova Sadriddinovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori

Nabiyev Nasimbek Shuhratjon o'g'li

TDIU Moliya fakulteti 2-bosqich talabasi

nasimbeknabiyev4@gmail.com

Gar qilich boshimga ham kelsa detayman rostin!

She'ringizga xalq tolib o'lsalar so'ngra o'qung!

Annotatsiya: ushbu maqolada Muhammad Aminxoja Muqimiyning “Voqelai Viktor” asaridagi iqtisodiy qarashlar, ularning ahamiyati va adibning badiiy uslubi tahlil qilinadi.

Аннотация : в этой статье анализируются экономические взгляды Мухаммада Аминходжи Мукими, их значение и художественный стиль писателя.

Rus:капитализм, рыночные элементы,научные проблемы, мир текстологии, изучение истории, иредактирование текста, эффективные методы обучения, современные методы обучения, преимущества

O'zb: kapitalizm, bozor iqtisodiyoti elementlari, soliq tizimi, adolatsizlik, iqtisodiy tengsizlik , qiyosiy-matny o'rganish, matnshunoslik, adabiy manbashunoslik, kompyuter lingvistikasi, psixolingvistika, matematik lingvistika

Ingliz: scientific problems, the world of textual criticism, the study of history , and text editing, effective teaching methods,modern teaching methods, advanta-

ges, computational linguistics, psycholinguistics, mathematical linguistics, sociolinguistics

Muqimiy ijodini o'rganish uning hayotlik chog'idan boshlangan. She'rlariga bildirilgan turli-tuman munosabatlar haqidagi bahslar, maqolalar bunga dalil bo'ladi. Shoir vafotidan to'rt yil keyin uning devoni "Devoni Muqimiy" nomi bilan ilk bor 1907-yilda Muqimiy Nikolay Ostroumov tomonidan nashr etilgan. Unda shoirning she'riy asarlari bilan birga tarjimayi holi va ijodi haqida qisqacha ma'lumot ham berilgan. 1910-yili Portsev litografiyasida "Devoni Muqimiy maa hajviyot" nomi bilan shoir asarlarining ikkinchi nashri amalga oshirildi. Gazeta va jurnallarda qator maqolalar e'lon qilindi. Bu xayrli ishning boshida buyuk shoir G'afur G'ulom turdi. Uning tashabbusi bilan 1938-yil "Muqimiy bayozi" tuzilib nashr etildi. "Bayoz"da shoirning 800 misradan iborat 27 ta she'ri berilgan bo'lib, ular janr xususiyatiga qarab joylashtirilgan (Satira-yumor, lirika) va ularga zaruriy izohlar, lug'atlar berilgan. 1950-yil shoir asarlari "Lirika i satira" nomi bilan Moskvada rus tilida bosildi. 1953 yil Muqimiy vafotining 50 yilligi munosabati bilan u haqda bir qator tadqiqotlar yaratilib, Muqimiyshunoslikka asos solindi. H.Yoqubovning "O'zbek shoiri Muqimiy", A.Olimjonovning "Muhammad Amin Muqimiy", H. Zaripovning "Muhammad Amin Muqimiy", H.Razzoqovning "Muqimiy va Zavqiy" nomli kitoblari hamda "Furqat va Muqimiy" nomli maqolalar to'plami nashr etilgan. Ushbu maqolada Muqimiy hayoti va faoliyatining o'rganilishi yoritilgan. Muhammad Aminxoja Muqimiy "Voqeani Viktor" asarida oddiy xalqning turmush tarzini, iqtisodiy muammolarini va hukmron tabaqaning siyosiy hamda iqtisodiy qarorlarini tasvirlash orqali iqtisodiy adolat mavzusini yoritadi. Muallifning asardagi iqtisodiy mavzularni hajv bilan bayon qilishi o'sha davrdagi ijtimoiy sharoitlarni tushunish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Muqimiy asarda iqtisodiy muammolarni hajviy uslubda bayon etadi. Masalan, o'sha davrda boy va kambag'allar o'rtasidagi keskin farqlar, adolatsiz soliq tizimi, narx-navoning o'sishi va xalqning iqtisodiy qiyinchiliklari asosiy mavzulardan biri sifatida aks etadi. Asarda boylar va hokimiyat vakillarining odamlardan foyda olish maqsadida olib borgan harakatlari tanqid qilinadi. Bu, ayniqsa, narxlarning sun'iy

ravishda oshirilishi va oddiy xalqning iqtisodiy ahvoliga e'tibor berilmasligi orqali yaqqol namoyon bo'ladi. Muqimiyning hajviy uslubi oddiy xalqning ovozi sifatida namoyon bo'lib, iqtisodiy tengsizlikning oqibatlariga e'tiborni jalb qiladi.

Eshit, turfa so'zlar hikoyat qilay,

Hikoyat agarchi shikoyat qilay.

Janobi o'shal Hodi Xo'ja eshon,

Olur o'zlarin ag'niyoi zamon.

"Voqelai Viktor"da bozor iqtisodiyoti elementlari ham hajv ostida tasvirlangan. Masalan, savdogarlarning o'z foydasini oshirish uchun xalqni aldagan holatlari va boylarning monopolistik harakatlari keltiriladi. Bu yerda Muqimiy kapitalizmning boshlang'ich shakllarini tanqid qiladi. Kapitalizm — xususiy mulk, bozor iqtisodiyoti va demokratik intilishlarga asoslangan jamiyat turi. Bunda iqtisodiy faoliyatning xalq hayotiga ta'siri muhim mavzu sifatida ko'tariladi.

Xususanki eshoni Hodixo'jam,

Yo'q og'zida qarzini vahmida nam.

Kerak bersa Maskovga bir lak, qani,

Bitib va'dai pul

Masalan, bozorlardagi narxlarning boshqarilmasligi, soliq tizimining adolatsizligi va xalqning ishlab chiqarish jarayonidan chetda qolgani orqali iqtisodiy siyosatning nomukammalligi tanqid qilinadi. Muqimiyning "Voqelai Viktor" asarida soliq tizimining adolatsizligi ham keng yoritilgan va tanqid ostiga olingan.

.Der ermishki, o'rusga nisfin beray,

Kelar yilga yarmiga muhlat so'ray.

Ushbu asardagi asosiy hodisalar shunday boshlanadi: Jabr-zulum avjiga chiqqan bir vaqtda Hodixo'ja ismli boylardan biri ,aholidan soliq olib Rossiya hukumatiga yig'ib berish bilan shug'ullanadi. Chunonchi xo'jam, Poshshoxo'jani Chu Maskov yuborgan bilan mol qani? Asarning jozibadorligi shundaki Moskovchi boy ta'rifi haqidagi asar bilan mazmunan davomiylik vazifasini bajarayotganidadir. Aslida yuqoridagi asarlar minglab insonlardan yig'ilgan tanob, soliqlarning pullari omonatga xiyonat qilmagan holda chor amaldorlarning aynan o'ziga yetkazilganmi yoki yo'qmi haqida shubha -gumonlarning jamlanmasidir. Zero, Muqimiy bobomiz ta'riflaganlaridek omonatga xiyonat qilmagan holda odil bo'lishimizga chorlamoqdalar. Soliq tizimi orqali boylar o'z boyliklarini ko'paytirar ekan, kambag'al xalq bundan aziyat chekadi. Soliqlarning haddan tashqari og'irligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxi arzon sotib olinib, qimmat sotilishi kabi masalalar hajviy uslubda tasvirlangan. Soliq tizimi - davlat budjetiga undiriladigan soliqlar turi majmuyi, ularni yig'ib olish pullari va usullarni tashkil etish tushuniladi. Muallif o'sha davrda soliq tizimi orqali boylar va hukmron tabaqaning xalq ustidan o'z hukmronligini mustahkamlaganini ochib beradi. Bu holat, ayniqsa, iqtisodiy adolat masalasini dolzarb qiladi. Muqimiy asarda oddiy xalqning iqtisodiy hayoti va qiyinchiliklari alohida e'tibor bilan yoritilgan. Dehqonlarning og'ir mehnati, savdogarlar tomonidan qabul qilingan adolatsiz narxlar, sanoat rivojining zaifligi va xalqning iqtisodiy beqarorligi asarda muhim mavzu sifatida tilga olinadi. Muallifning bu mavzularga murojaat qilishi o'sha davrning iqtisodiy sharoitlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Shoir o'zbek adabiyoti tarixida ijtimoiy-siyosiy hajviyotning asoschilaridan biri bo'lib maydonga chiqdi. Uning qator hajviyalarini shu yo'nalishning yetuk namunalari sirasiga qo'yish mumkin. "Tanobchilar", "Voqeai ko'r Ashurboy hoji", "Moskovchi boy" kabi hajviyalarida mustamlaka tuzumi uchun xos bo'lgan hayotiy mavzular –jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, tabaqalanish, hukmron adolatsizlik kabi juda jiddiy masalalar tahlil etildiki, bu Muqimiy hajviyotining siyosiy yo'nalishi va g'oyaviy kamolotidan guvohlik beradi. Bu jihatdan Ashurboy

Hojining og‘ir jinoyati haqidagi hajviyadan shoirning jiddiy siyosiy umumlashtiruvchi xulosasi diqqatga sazovor:

Hikoyat qilay, turfa davron ekan,
Xaloyiq hama mahv-u hayron ekan.
Chiqib yangi maskovchidin boylar,
Sinar o‘tmayin ba’zisi oylar.

Xalqning iqtisodiy hayoti va uning murakkabliklari tasvirlari orqali Muqimiy jamiyatda iqtisodiy adolatni ta’minlashning ahamiyatini ko‘rsatadi. Muqimiyning hajviy uslubi iqtisodiy siyosatni tanqid qilishda muhim rol o‘ynaydi. "Voqeai Viktor"da muallif o‘ziga xos o‘tkir tilda boylarning haddan tashqari xudbinligini va hukmron tabaqaning oddiy xalqni mensimasligini tanqid qiladi. Asardagi obrazlar orqali u iqtisodiy siyosatning nohaqliklarini ochib beradi. Bu tanqidiy yondashuv orqali Muqimiy iqtisodiy islohotlarga ehtiyoj borligini, xalqning ahvolini yaxshilash uchun yangi iqtisodiy siyosat talab qilinishini anglatadi. Tabiatan adolatgo‘y bo‘lgan Muqimiy parom va tanobchilar mavzusini o‘z she’rlarida aks ettirib o‘tgan:

Kelganim ushbu makonga qiladur manga alam,
Loyiqi tab’ yo‘q odamki, desam hasratu g‘am,
Gaplashurg‘a kishi yo‘q ertadin oqshomg‘acha ham,
Kun sovuq, qora chiroq, go‘rdek uyu, o‘tin kam.
Chiqsam eshikka qilur to‘rg‘ayi chuldir-chuldir.

Shoir tanobchilarning qing‘irliklarini hajv qilar ekan, she’r oxirida shunday xulosa chiqaradi:

Tag‘i bular yaxshiyu bizlar yamon,
El tamizidin hazar et, al’amon.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, Muqimiyning "Voqeari Viktor" asari XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi iqtisodiy hayotni o'ziga xos hajviy uslubda yoritgan nodir asarlaridan biridir. Asarda iqtisodiy tengsizlik, soliq tizimidagi adolatsizlik, bozor iqtisodiyotining nohaqliklari va oddiy xalqning iqtisodiy hayoti kabi masalalar dolzarb mavzu sifatida ko'tarilgan. Bu asar orqali Muqimiy xalqning ovozi sifatida namoyon bo'lib, iqtisodiy adolatni ta'minlash uchun jamiyatga murojaat qiladi. Uning hajviy uslubi va tanqidiy yondashuvi asarni nafaqat o'sha davr uchun, balki bugungi kunda ham dolzarb bo'lishini ta'minlaydi. Shu sababli, "Voqeari Viktor"ni iqtisodiy mavzularni yorituvchi asarlar qatoriga qo'shish mumkin. "Voqeari Viktor" asarida ko'tarilgan iqtisodiy mavzular bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Adolatsiz soliq tizimi, iqtisodiy tengsizlik va xalqning iqtisodiy ahvoliga e'tiborsizlik kabi masalalar hozirgi zamon uchun ham muhimdir. Muqimiyning asari o'sha davr iqtisodiy sharoitlarini tushunish va bugungi kunda ham iqtisodiy adolatni ta'minlash uchun muhim saboqlar beradi. Asar bugungi o'zbek jamiyatining iqtisodiy siyosatini shakllantirishda o'rnak bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Karimov F. O'zbek mumtoz adabiyotining bosh nazari masalalari.

Q. Pardayev. Muqimiy she'riyatida tahrir masalasi,

G'ulom Karimov - marifat fidoisi. - T., 2009. - B.56-63;

Sirojiddinov Sh., Umarova S. O'zbek matnshunosligi kirralari. - 2015.- B. 7-9;

Jabborov N. Badiy matn tahrining xus husiyatlari / "O'zbek adabiyotshunosligining talqin va tahlil muammolari" mazuidagi ilmiy-nazari anjuman materiallari. - Toshkent, Mumtoz suz, 2014.- B. 28-32;

O'zbek matnshunosligining dolzarb muammolari / "Zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligining yangilanish tamoyillari" mavzusidagi/Toshkent, 1943;

http://conference.adu.uz/nmot/files/nutq_madaniyati_ [www. scopus.com](http://www.scopus.com) Бюллетень
науки и практики

<http://slovar.olam.uz/> <http://sahifa.tj>

Saylanma/Muqimiy; Nashrga tayyorlovchi G'.Karimov. - T.: "Ma'naviyat", 2009.-96b

[https://uz.wikipedia.org./wiki/Kapitalizm](https://uz.wikipedia.org/wiki/Kapitalizm)